

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

UDK 631.434.52

ABDURAXMANOV SOXIBJAN TURDIALIEVICH

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA NAMANGAN VILOYATI YER VA
SUV RESRUSLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING
GEOEKOLOGIK JIHLARI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona
foydalanish**

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023 yil

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
географическим наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor (DSc)
on geographical sciences**

Abduraxmanov Soxibjan Turdialievich

Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyati yer va suv resruslaridan oqilona foydalanishning geoeologik jihatlari.....

Абдурахманов Сохибжан Турдалиевич

Геоэкологические аспекты рационального использования земельных и водных ресурсов Наманганской области в условиях изменения климата31

Abduraxmanov Soxibjan Turdialiyevich

The geoeological features of efficient utilization of land and water resources in Namangan region in the process of climate change.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

UDK 631.434.52

ABDURAXMANOV SOXIBJAN TURDIALIEVICH

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA NAMANGAN VILOYATI YER VA
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING
GEOEKOLOGIK JIHLARI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona
foydalanish**

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.2.DSc/Gr51 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Kamalov Bahodir Asamovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nigmatov Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori, professor

Xolmatjanov Baxtiyar Maxamatjanovich
geografiya fanlari doktori, professor

Naraliyeva Nasibaxon Mamanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
Akademiyasi Seysmologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning “___” _____ 2023-yil soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 140104, Samarqandsh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti bosh binosi 105-xona, Tel.: (99866) 239-16-36, faks: (99866) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya2018@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ ___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
kotibi, geografiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, g.f.d., доцент

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha suv resurslarining hududiy tanqisligini yuzaga kelishi, iqlim o'zgarishi, tuproqlar degradatsiyasi, turli texnogen buzulishlar, cho'llanishni avj olishida hamda arid mintaqalarni kengayishi kabi salbiy ekologik jarayonlar kuchaymoqda. Bu muammolarni oldini olish, ularga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida "2030 yilgacha barcha darajalarda suv resurslarining kompleks, shu jumladan, zaruratga ko'ra transchegaraviy hamkorlik asosida boshqarilishini ta'minlash"¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa, iqlim o'zgarishi sharoitida suvga bo'lgan ehtiyojni ortib borishi hisobiga suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, qishloq xo'jaligida suvni tejoychi texnologiyalarini qo'llash, arid hududlarda kam suv talab etadigan ekinlarni joriy etish va landshaft-meliorativ tadbirlarni kompleks olib borishni taqazo etadi.

Dunyoda suvdan foydalanish zarurati oshgan sayin suvning ifloslanishini ham ortishi, ichki suv havzalarini ifloslanib borishi oldini olish, qurg'oqchil o'lkalarda suv etishmasligiga qarshi kurashish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qurg'oqchilik sharoitida suv resurslaridan tejamkor texnologiyalar asosida foydalanish uslublarini yaratish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yer va suv resurslarini hozirgi holatini o'rganish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholash, sug'orma dehqonchilikda tomchilatib, yomg'irlatib, plyonka ostidan sug'orish, mulchalash usullaridan foydalanish, qurg'oqchil yerlarda sug'ormasdan hosil olish va suv tejashning ekologik samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligida yer, suv resurslaridan samarali foydalanish va innovatsion resurs tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish»² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, Namangan viloyatida yer va suv resurslaridan foydalanish, sug'orma dehqonchilikda suv taqchilligini kamaytirish, iqlim o'zgarishi sharoitida suvni kam talab etadigan ekinlarni joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF 5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"gi va 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"

¹ 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // Elektron dustup: <http://www.uz/undp/org/kontent/uzbekistan.uz>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi 3672-son “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. «Yer haqidagi fanlar», V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi tashkilotlari, ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan: World Resources Institute (AQSh), International Commission on Irrigation and Drainage (ICID, Hindiston), International Institute of Water Resources Management (IWMI, Shri Lanka), American Water Resources Association (AWRA, AQSh), Columbia Water Center (CWC, Columbia), Институт сельскохозяйственной метеорологии (Россия), Северо-Западный институт гидротехники и мелиорации (Россия), Московский университет землеустройства (Россия) va boshqalarda olib borilmoqda.

Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning tuproq, iqlim va yer-suv xususiyatlari, qishloq xo‘jaligi yerlarini meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: Global iqlim o‘zgarishi muammolari, barqaror bozorlar, ekotizimlarni muhofaza qilish va atrof-muhit uchun mas‘ul boshqaruv xizmatlari ishlab chiqilgan (World Resources Institute, AQSh), suv va yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish va sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish usullari ishlab chiqilgan (International Commission on Irrigation and Drainage, Hindiston), iqlim o‘zgarishining daryo havzalari dinamikasiga ta‘siri, GIS texnologiyasi yordamida suv resurslarini yerdan foydalanishga ta‘sirini o‘rganish dasturlari ishlab chiqilgan (International Institute of Water Resources Management, Shri Lanka), suv resurslari va ularni boshqarish, biologik xilma-xillikni asrab qolish uslublari takomillashtirilgan (American Water Resources Association, AQSh), iqlimiy o‘zgarishlarni suv, oziq-ovqat, energetika, ekotizimlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muammolarini ijobiy hal qilishning monitoring tizimi ishlab chiqilgan (Columbia Water Center, Columbia), ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligini yaxshilashga va agrometeorologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar takomillashtirilgan (Институт сельскохозяйственной метеорологии (Россия), qishloq xo‘jaligida dolzarb bo‘lgan meliorativ muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha dasturlar yaratilgan (Северо-Западный институт гидротехники и мелиорации, Россия),

³ Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.ined.fr>, <https://www.edu>, <https://eh.net/encyclopedia/article> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

yerlardan foydalanish istiqbollari bo'yicha xalqaro dasturlar ishlab chiqilgan (Московский университет землеустройства, Россия).

Jahonda iqlim o'zgarishini atrof-muhitga ta'sirini o'rganish, yer va suv resurslaridan foydalanishda antropogen ta'sir darajasini aniqlash kabi bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan: inson xo'jalik faoliyatida yer va suv resurslarining hozirgi holati va foydalanish imkoniyatlarini o'rganish; sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash; sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish darajasini kamaytirish; qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilish; suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini tuproq-iqlim sharoiti va ekin turiga qarab takomillashtirish; sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minotini yaxshilash muhim masala sanaladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'orishda mulchalashni qo'llash bo'yicha taniqli xorijiy olimlar, jumladan, O.Bennet, D.R.Devidson, E.Emmert, I.Reynxold va M.Z.Shmidt, V.Marki, X.Xaaze, X.Benkenshteyn, F.Marechek, E.Trefla, A.Pustay X.R.Speys, MDH olimlari A.N.Балашов, Н.Н.Банасевич, Н.М.Вишнякова, Н.Г.Захаров И.М.Козулина, М.И.Макаревский, В.В.Попова, V.I.Revut, D.B.Sipris, A.Ф.Лебедев va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan ilmiy-nazariy qarashlar va g'oyalar bilan tavsiflangan.

O'zbekistonda arid iqlim sharoitida dehqonchilikka ob-havo va iqlimning ta'siri hamda sug'orishda mulchalashni qo'llash bo'yicha Л.Н.Бабушкин, А.К.Абдуллаев, Р.А.Абдурахимов, И.Рабинович, Н.Басаргина, I.Тугаров, В.И.Зуев, А.А.Басистов, Н.Ф.Лукин, Н.Ф.Матюшин, R.Soatov, П.П.Языков va R.Z.Muxammadjonov, Sh.T.Xolikulov, A.S.Shamsiev F.A.Muminovlar tomonidan o'rganilgan. Ular mulchalash uchun mulchqog'oz, neft chiqindilari-smoloparafin, bitum emulsiyasi va boshq., torf, to'l va hatto sement ishlatishgan. Keyinchalik bularning barchasi orqada qoldi va mulchalash asosan polietilen plenklar bilan bajariladigan bo'ldi.

Farg'ona vodiysida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'liq tadqiqotlar С.С.Неуструев, Е.М.Мурзаев, Л.Н.Бабушкин, Н.А.Корай, А.Абдулқосимов, А.Н.Нигматов, X.Vahobov, В.А.Камолов, R.Holiqov, I.Abdug'aniev, К.М.Boymirzaev, А.А.Назаров, О.И.Абдуг'aniev, Е.А.Солiev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, arid hududlarida yer va suv resurslardan foydalanish, sug'orishda mulchalash usulini qo'llashga doir ko'pgina ishlar bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, arid hududlarida vegetatsiya davri uchun 8-10 marotaba suv talab etadigan sabzovot ekinlarini yetishtirishda mulchalash (polietilen plenka) usulidan foydalanib suvni tejash bo'yicha amaliy ishlar bajarilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi aynan shu masalani yechishga qaratilganligi bilan avvalgilardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining u bajarilayotgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan Davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-sonli "ITD-7-29. «Namangan viloyati tabiiy resurslari, ulardan foydalanish va yuzaga kelayotgan ekologik

muammolarni bartaraf etish yo'llari» mavzuidagi amaliy tadqiqotlar (2012-2014 yy.) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyati arid hududlarda tuproq va havodagi namdan foydalanish orqali sug'orish uchun sarflanadigan suvni tejash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyati yer va suv resurslari holatining o'zgarishini baholash;

Namangan qishloq xo'jaligi yerlarida suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

an'anaviy sug'orish asosida sug'orish maydonlarini kengaytirishda kuzatilayotgan va yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik oqibatlarini tahlil qilish va baholash;

tuproqning tabiiy suv rejimi va undagi kondensatsion jarayonlarning qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ta'minlash imkoniyatlarini tadqiq etish;

arid sharoitda sug'ormasdan sabzavot ekinlarini yetishtirish bo'yicha tajribalar o'tkazish;

qurg'oqchil yerlarda suv tejashning ekologik samaradorligini aniqlash;

Tadqiqot ob'ekti sifatida Namangan viloyati arid hududlari, yer va suv resurslari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqlim, yer va suv resurslari hamda qurg'oqchil hududlardan foydalanishni ilmiy asoslash, tejamkor texnologiyalar yordamida suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan masalalar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tizimli, tarixiy, statistik, suv balansi va taqqoslash, kartografik, ekspeditsiya, qiyoslash, laboratoriya, matematik, dala tadqiqot, tayanch eksperimental tadqiqot, rekognatsirovka, geografik taqqoslash, masofaviy zondlash usullaridan foydalanigan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Namangan viloyatining yer fondini tarkibiy tuzilishiga iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri tadqiq etilib, olingan xulosalar asosida suv ta'minotiga ega bo'lmagan hududlarda sug'orishsiz (tuproq va havo namligidan foydalangan xolda) hosil olishning no'anaviy usullari yaratilgan;

Namangan viloyatida mavjud suv resurslaridan tejamli foydalanish va muhofaza qilish maqsadida, o'rtacha yillik yog'in miqdori 200 mm dan oshmagan qurg'oqchil hududlarda sabzavot ekinlaridan sug'orishsiz hosil olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqlim o'zgarishi sharoitida yog'ingarchilikning mavsumiy jihatlari va ularni tuproq namligiga ta'siri ilmiy asoslangan hamda tuproqda vegetatsiya davri boshlanishiga qadar to'plangan nam miqdori kuz qish davridagi yog'in miqdoridan ko'pligi aniqlangan;

qurg'ochil hududlarda tuproqda namlikni (kondensatsiya hisobiga) to'planish jarayoni tajribada asoslangan va yig'ilgan namlikning katta qismi mulchalash usulini qo'llashda ham saqlanlaganligi aniqlangan;

qurg'ochil hududlarda suvni ko'p talab qiluvchi qishloq xo'jalik ekinlarida (pomidor 156-235 s/ga, bulg'or qalampiri 48-50 s/ga, baqlajon 80-124 s/ga, paxta 14-18 s/ga) sug'orishsiz hosil olish usuli yaratilgan;

Sug'orma dehqonchilikda suv tanqisligi muammosini hal etishning asosiy yo'llaridan biri suvni kam talab qiluvchi ekinlar – bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyatida yer resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tuproqda atmosferadagi namlikni (kondensatsiya hisobiga) to'planishi jarayoni tajribalarda aniqlangan va bu sug'orma dehqonchilikda suv tanqisligi muammosini hal etish yo'llaridan biri ekanligi asoslangan;

mulchlash usuli tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish usuliga nisbatan samarador ekanligi asoslangan;

qurg'ochil hududlarda sabzavot ekinlaridan sug'orishsiz hosil olish agrotexnologiyasi yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, avvalo dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi gidrometeorologiya xizmati va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan asoslanadi, shuningdek, tadqiqotchi tomonidan 2011-2016 yillarda o'tkazilgan qishloq xo'jaligi ekinlaridan sug'ormasdan hosil olish bo'yicha tajribalari dissertatsiyaning informatsion poydevori hisoblanadi. Asosiy natijalar ishlab chiqilgan, shuningdek taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy qilingan, olingan tadqiqot natijalari tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yer va suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha respublika va mintaqaviy doirada tabiiy geografik hamda agrometeorologik tizim hamda qishloq xo'jalik ekinlarini yog'in bir yilda 200 mm dan kam, bug'lanuvchanlik esa 1000 mm dan ko'p hududlarda sug'ormasdan hosil yetishtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Amaliy ahamiyati qurg'ochil va yarim qurg'ochil hududlarda atmosfera, tuproq va o'simlik tizimlari bog'liqligini yaxshilash bo'yicha amaliy tadqiqot usullari ishlab chiqilib, ulardan foydalanish imkoniyatlarini tadbiq etishga asoslanadi. Tadqiqot natijalarini qishloq xo'jaligiga joriy etish sug'orishga sarf bo'ladigan suvni tejash va suv ob'ektlaridan uzoqdagi hududlarda dehqonchilik qilishga imkon berganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyati yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishning geoekologik jihatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Namangan viloyatining yer fondini tarkibiy tuzilishiga iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri tadqiq etilib, olingan xulosalar asosida suv ta'minotiga ega bo'lmagan hududlarda sug'orishsiz (tuproq va havo namligidan foydalangan holda) hosil olishning noan'anviy usullaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 7 iyundagi 04216-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Milliy atlasining "Sug'oriladigan yerlar irrigatsiyasi va melioratsiyasi" bo'limi mazmunini boyitish, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish imkoniyatini bergan;

Namangan viloyatida mavjud suv resurslaridan tejamli foydalanish va muhofaza qilish maqsadida, o'rtacha yillik yog'in miqdori 200 mm dan oshmagan qurg'oqchil hududlarda sabzavot ekinlaridan sug'orishsiz hosil olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi amaliyotida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 7 iyundagi 04216-son ma'lumotnomasi). Natijada, Namangan viloyati yer maydonlari fondi tarkibining yangi texnologiya asosida yaxlitligini saqlab qolish imkonini bergan;

Namangan viloyatida kamsuv talab qiluvchi ekinlarni ekish, qurg'oqchil maydonlardan samarali foydalanish va tuproqning nam sig'imini aniqlash bo'yicha tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 10 iyuldagi 03-03/3-2579-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqda vegetatsiya davri boshlanishiga qadar to'plangan nam miqdori kuz, qish davridagi yog'in miqdoridan 50-60 mm ko'pligi aniqlangan;

iqlim o'zgarishi davrida Namangan viloyatiga suv beruvchi daryolarning suv rejimini o'zgarishining ekinlar strukturasi ta'sirini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 10 iyuldagi 03-03/3-2579-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qurg'oqchil hududlarda tuproqda namlikni (kondensatsiya hisobiga) to'planishi, yig'ilgan namlikning katta qismi esa, mulchalash usulida saqlanlaganligi tajribada aniqlagan;

Namangan viloyatining Chortoq, Kosonsoy tumanlarining dehqonchilik qilinadigan maydonlarida mulchalash usulidan foydalanib, bug'lanishni kamaytirish asosida sabzavot ekinlaridan sug'orishsiz hosil olishning takomillashtirilgan usullari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi

vazirligining 2023 yil 10 iyuldagi 03-03/3-2579-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan;

Namangan viloyatining adiroldi, adir va adirorti maydonlarida suv ta'minotidan uzilgan qurg'oqchil hududlarida vujudga kelgan ayrim geoeologik muammolarni bartaraf etish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 10 iyuldagi 03-03/3-2579-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sug'orma dehqonchilikda suv tanqisligi muammosini hal etishning asosiy yo'llaridan biri suvni kam talab qiluvchi ekinlar – bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqot natijalari 11 ta Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish (Farg'ona, 2018), - O'zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari (Termiz, 2020), - Farg'ona vodiysida atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik xususiyatlari va ularni optimallashtirish (Namangan, 2021), - Farg'ona vodiysida biologik xilmaxillikni saqlab qolishning hozirgi zamon muammolari va yechimlari (Farg'ona, 2022), - In an "International Multidisciplinary Conference "Innovations in Sciences, education and Humanities" (Italiya, Roma, 2021), International conference on research in Sciences, education and humanities (Shvesiya, 2023) mavzularidagi anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan. Shundan, 2 ta monografiya, 4 ta nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda, 4 tasi OAK ro'yxatidagi respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa va amaliy tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 224 bet, shundan matn qismi 194 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritib berilgan.

Birinchi bob “Iqlim o‘zgarishi sharoitida tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning nazariy metodologik asoslari”ning ilmiy-nazariy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, asosiy e’tibor Global iqlim o‘zgarishining yuzaga keltiruvchi asosiy omillar, iqlim o‘zgarishi sharoitida tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik jihatlari, tabiatdan foydalanish prinsiplari va ustuvor yo‘nalishlari hamda tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning dolzarbligi masalalariga qaratilgan.

Global iqlim o‘zgarishi muammosi insoniyat kun tartibida dolzarb bo‘lib qolmoqda. Global iqlim o‘zgarishi bu sayyoramizda faqat haroratning o‘rtacha yillik ko‘tarilishi emas, balki barcha geotizimning o‘zgarishi, jahon okeani sathining ko‘tarilishiga, muz va doimiy muzliklarning erishiga, yog‘ingarchilikning bir tekisda yog‘masligi, daryolar oqimi rejimining o‘zgarishiga va iqlimning beqarorligi bilan bog‘liq boshqa o‘zgarishlarga demakdir. Hozirgi davrda insoniyatning asosiy vazifalaridan biri, iqtisodiy va ekologik muvozanatni mutanosiblashtirish, atrof muhitga salbiy ta’sirini cheklash uchun hamjihatlikda harakat qilish hamda adolatli hal etilishiga erishishdan iboratdir.

Haroratning oshishi insoniyatga bevosita emas, balki bilvosita ham xavf tug‘dirishi mumkin. Iqlim modellariga ko‘ra o‘rtacha global haroratning ortishi dengiz sathining ko‘tarilishiga (ya’ni, qishloq xo‘jaligi yerlarini suv bosishi va qirg‘oq bo‘yi sizot suvlarining sho‘rlanishi), bo‘ronlar va jazirama kabi ekstremal tabiiy hodisalar qaytarilishining ortishiga hamda iqlim mintaqalarining qutblarga qarab ko‘chishiga hamda quruqlik yuzasi katta qismida tuproq namligining kamayishiga olib kelmoqda. Shunga muvofiq harorat, namlik va quyosh nuri bilan ta’minlanganlik darajasi o‘zgarishi o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi sohalari ham o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda suv resurslarini asosiy iste’molchisi qishloq xo‘jaligi sohalari hisoblanib, mavjud yer usti suvlarini 93 foizni sug‘orishga ishlatiladi. Shuning uchun, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishlarni sug‘oriladigan yerlarga nisbatan ta’sirini baholash dolzarbdur. Chunonchi, iqlim o‘zgarishi suvning bug‘lanishiga va uning sarfini ortishiga olib keladi, natijada sug‘orish me’yori va sonini oshishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, suv resurslari tanqisligi sug‘orish suvlarini qo‘shimcha xarajatlarini ortishiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi sug‘orish me’yorlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bizningcha, sug‘orish me’yorlari ortishi 2030 yilda 5 %, 2050 yilda 7-10%, 2080 yilda 12-16 % ga yetishi kutilmoqda. Bu esa O‘zbekiston uchun juda katta ko‘rsatkichdir.

O‘zbekiston hududida shakllanadigan suv resurslarining ulushi Amudaryo havzasi bo‘yicha 6% ni, Sirdaryo havzasi bo‘yicha 16 %ni tashkil etgan holda, bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha 10% ga tengdir. Chuchuk suvlarning yer osti zahirasi 19,7 km³ ga bo‘lib, barcha yig‘ilgan suv resurslari xo‘jalik faoliyatida foydalanilmoqda. Bu sug‘orish me’yoriga nisbatan kam hisoblanib, suv tanqisligini yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryo daryolarini

quyi qismi, Orol dengiziga quyilish joyida o'rtacha suvning oqib kelishi 12-15 km³ bo'lsada, qurg'oqchilik sharoitida 4-6 km³ ni bo'lishi kutilmoqda.

Umuman olganda, global iqlim o'zgarishi mintaqadagi iqlimiy sharoitlarni murakkablashtirib, yozgi mavsumda - qurg'oqchilik va jaziramani kuchaytirgan, qishki qahratonni esa uzaytirgan. Iqlimiy xususiyatlar viloyatning uncha katta bo'lmagan tekislik, adir va tog' oldi maydonlarida ayrim xo'jaliklarni tarmoq tarkibini o'zgarishiga olib kelishi kuzatilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqlim o'zgarishining Namangan viloyati yer va suv resurslar salohiyatiga ta'siri”** deb nomlangan ikkinchi bobida Iqlim o'zgarishi sharoitida Namangan viloyatining geoekologik xususiyatlari, Namangan viloyatining tabiiy resurslar salohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari, iqlim o'zgarishining Namangan viloyati yer va suv resurslariga ta'sirini baholashga oid masalalar yoritilgan.

Hozirgi davrda tabiatga inson ta'siri oqibatlarini o'rganish va bular qanday natijalarga olib kelishini oldindan bilish, inson xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy landshaftlarda ro'y bergan o'zgarishlarni tadqiq qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Farg'ona vodiysidagi mavjud landshaft komplekslari ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, vodiyning tekislik, adir, adir orti va tog' oldi landshaftlari yuqori antopogen bosim ostida ekanligi olib borilgan tadqiqotlarda aniqlangan.


O'ziga xos geomorfologik tuzilishiga ega bo'lgan Namangan viloyatida ham (tekislik, adir, adirorti tekisliklari, tog'oldi tog'li) tabiatdan foydalanish hamda muhofaza qilish masalalarini jumladan, yer va suv resurslaridan me'yorida foydalanishni amalga oshirish iqlim o'zgarishi sharoitida murakkab kechmoqda.

Viloyat hududi mo'tadil mintaqada joylashgan bo'lib, unda iqlim omillaridan biri quyosh radiatsiyasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda o'rtacha yillik yog'in miqdori 200 mm dan oshmaydigan janubiy cho'l iqlimi, adir va tog' oralig'i botiqlarida yillik yog'in 200-400 mm bo'lib dasht iqlimi, tog'oldi hududlarida yog'in 400 mm dan oshadigan mo'tadil iqlim hamda Chodaksoy va Ohangaron daryol havzalarining yuqori qismlarida tog' iqlimi hukmronlik qilib, Andijon va Farg'ona viloyatlari iqlimidan keskin farq qiladi.

Viloyatning Qurama va Chotqol tog' tizmalarining janubi va janubi-g'arbida joylashgan katta qismi ham hozirgi kunda sug'oriladigan maydonlarga aylanib bormoqda. Sug'orma dehqonchilikni asosini tashkil etgan adir va adir orti tekisliklarini o'zlashtirish o'tgan asrning va 70-yillardan boshlangan. Buning uchun 16 dan ortiq suv omborlari va selxonalar, 100 dan ortiq nasos stansiyalari, Katta Namangan, Chust kanallari ishga tushirildi. Natijada, sug'oriladigan yerlar maydoni ortib tog'oldi hududlarigacha yetib bordi. O'tgan davr (1970-2000 yillar) mobaynida 100 ming gektardan ortiq yerlar o'zlashtirildi. Bu esa o'ziga xos ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Jumladan, o'tgan asrning 90-yillardan boshlab Shimoliy Farg'ona adirlari va ular orasida joylashgan tekisliklarda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, qiyalik yuqori bo'lgan joylarda eroziya, jarlanish, suffoziya kabi jarayonlar rivojlana boshladi. Shuningdek, viloyatning sug'oriladigan yerlari eroziya tufali ham zararlanadi. Chunki,

viloyatning relief xususiyati va joylashgan o'ri eroziyani keltirib chiqaruvchi omillarning rivojlanishiga olib keladi. F.Hikmatov va boshqalar (1999) tomonidan tasniflangan eroziyaning barcha turlari viloyat hududida ham keng tarqalgan. Jumladan, tog' va tog'oldi hududlarida suv eroziyasining rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday jarayonlarni rivojlanishini keltirib chiqaruvchi asosiy

NAMANGAN VILOYATI TABIATNI MUHOFAZA QILISH XARITASI



SHARTLI BELGILAR

- NAMANGAN**
 Pop — Viloyat markazi
 Olmos — Tuman markazlari
 Bosqich aholi punktlari
 Davlatlar chegaralari
 O'zbekiston viloyatlari chegarasi
 Suv omborlari
 Daryolar
 Kanallar va kollektorlar
 Temir yo'lar
 Avtomobil yo'li

- LANDSHAFTLARINI O'ZGARGANLIK DARAJASI**
 O'zgarman
 Kuchsiz o'zgarman
 O'rta o'zgarman
 Qayta o'zgartirilayotgan meliorativ (sug'orma yerlar)
 Kuchli muhandisli o'zgarman

TABIATNI MUHOFAZA QILISH TADBIRLARI

- Sanoat korxonasi va shaharda**
 1. "Qurilish me'yorlari va tartiblar" (QM va T) talablariga muvofiq korxonalar sinflariga ko'ra sanitariya-muhofaza mintaqalari o'z kichiklarini optimal kattaliklarga qadar etkazish.
 2. Shaharlar atrofidagi qurilish qurilmalarini 100-150 m (1) shaharlar (Qm bo'lsa shaharlik shahar 50 m) yoki mintaqalar tarkibida o'tkazish.
 3. Sanoat korxonalarini gaz va chiqarilgan suv qotqovchi moddalar bilan to'ldirilgan va atmosfera qatlamidagi zararli chiqindilarning chiqarilishini muammasiz nazorat qilish, chiqindilarni tozalovchi jirayovni o'rnatish va ularni tozalash.
 4. Sanoat korxonalarini va aholi yashash joylarining og'ir zararli va zararsiz qismlarini qat'iy ajratish. Qayta qurilish va qurilish qurilmalarini zararli moddalardan tozalash va qayta tiklash chiqarishni to'xtatish.
 5. Shahar chiqindilarini muammasiz yig'ish va qaytadan ishlatish yo'liga qo'yish.

VOHALARDA

- X Mavjud eski kollektorlar — zovurlar va irrigatsiya tarmoqlarini yangi loyihalarda asosida qayta qurish.
- W Sug'oriladigan yerlarni sifatli tekislash va yuvish. Yerlarni mayda dog'li sho'rlanishdan bartaraf etish.
- W Irrigatsiya tarmoqlari, suv omborlari va sel sur'atini to'planadigan selxonalar bo'yab suvni muhofaza qiluvchi to'xtatqichlar burchaklarini o'rnatish.
- W Buzilgan yoylovlarini muhim yem-hashak ekidani o'zgaritish bilan ularni yaxshilash.
- W Irrigatsiya kanallari bo'yab suvni muhofaza qiluvchi o'rmon mintaqalarini yaratish.
- W O'ldiri o'tish bo'lgan eroziya hilleri:
 A) Irrigatsiya (B) jar eroziyasi
- Z Qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkundalari va kasalliklarini qurshni inkubatsiya berishda biometodlar ko'proq foydalanish, bu borada pesantlardan foydalanish hajmini keskin kamaytirib borish.
- W Amashlab ekish optimal ko'rsatkichlarga qadar tadbir etish, muhlatli o'zgartirish foydalanish (har ga maydonga 40-60 t va undan ziyod) ularni mineral o'g'itish bilan muvofiq holda ishlatish va mineral o'g'itish miqdorini minimal darajaga kamaytirib borish.

CHO'L YAYLOVLARIDA

- D Barxanlar va boshqa xarakterdagi qumlar bilan kurashda fitometodlarini qo'llash.
- W TO'G' O'LDI VA YAYLOVLARIDA
 E Eroziyaga qarshi o'rmon mintaqalarini burchaklarini o'rnatish (dog' yombag'irlarini qiyalik va sel'ning o'yin-chuqurini hisobga olingan holda).
 W Yombag'irlarda sel, surtilma, jar eroziyasiga qarshi daraxtzorlarni vujudga keltirish.
- W O'rta baliqlikdagi tog'larda archozorlar maydonini saqlash kengaytirish, ularni qiyaliklarni to'xtatish.
- X Xusussiy shaxsalar tomonidan dorivor o'simliklarni yig'ishni man etish, sanitariya muvofiqdagi to'xtatqich barcha turdagi daraxtzorlarni qiyaliklarni to'xtatish.
 "O'zbekiston qizil" kitobiga kirtilgan o'simliklarni yig'ish va hayvonlarni ov qilishni taqiqlash.
- W Yaylovlariga ma'lum vaqt mobaynida dam berish, buzilgan yaylovlarda muhim yem-hashak o'simliklar ekish.
- E Sel va suv toshqinlari oldini olovchi tadbirlar:
 a) Daraxt va butal o'simlik ekish, b) Sel yo'lidagi soylarni buni qilmaslik.

Asolining salomatligini yabahlash tadbiri

1. Aholi yashash joylarini sifatli ichimlik suvlari bilan ta'minlashni yaxshilash, kanalizatsiya tizimlarini o'rnatish.
 2. Aholi salomatligini tubdan yaxshilash bo'yicha choralar-tadbirlarni muammasiz qo'llash (saniatar gigiyeniya, epidemsiologik, aholi yashash joylarida sanitariya-muhofaza mintaqalarini burchaklarini o'rnatish, shaharlar atrofidagi qurilish qurilmalarini muammasiz nazorat qilish va ularni qayta ishlab bo'yicha davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish).
- SUG'ORMA DEHQONCHILIKDA YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMALARI VA ATROF-MUHIT.**
- Sug'orish imkoniyati bo'lmagan tog'li hududlar
 - A'vvaldan sug'orilgan, hozirda sur va' mimotidan uzilgan maydonlar
 - Qurqoqlik havo solayotgan hududlar


Mashtab: 1: 1000 000

1-rasm. Namangan viloyati tabiatni muhofaza qilish xaritasi

omillarga: yog‘inning ko‘p yog‘ishi, nishablikning kattaligi, vaqtincha oqar suvlarning mavjudligi, tuproqning chirindiga kambag‘alligi, tuproq xossalari yomonligi, yer yuzasining o‘simliklar bilan kam qoplanganligi, ko‘p yerlarning sug‘orish ta‘siriga tortilganligi, sug‘orishning agrotexnika qoidalariga rioya qilinmasligi, yaylov, o‘tloq va pichanzorlardan oqilona foydalanmaslik, almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etmaslik, oqava suvlarni noto‘g‘ri tashlash kabilar sabab bo‘lmoqda. Buning oqibatida viloyatning bog‘dorchilik, uzumchilik, meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan bir qator xo‘jaliklarida tuproq unumdorligi pasayib, hosildorlikni kamayishiga olib keldi. Bu kabi ekologik muammolar rivojlangan yerlarda qo‘shimcha meliorativ chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qo‘llashni taqozo etmoqda (1-rasm).

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda qishloq xo‘jaligi va umuman inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga tazyiqi oshib borishi “tabiat-xo‘jalik-jamiyat” tizimida ma’lum nomutanosiblikni yuzaga kelishi, viloyat tabiiy resurslari salohiyatini baholay olmaslik hamda ulardan foydalanishni rejali amalga oshirilmalik noxush ekologik muammolar vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda viloyat yer fondi 718,1 ming gektardan iborat bo‘lib, shundan 389,2 ming gektar jami qishloq xo‘jaligi yerlari, 191,5 ming ga ekin yerlari, 44,0 ming ga ko‘p yillik daraxtzorlar, 2,5 ming ga bo‘z yerlar, yaylovlar 151,2 ming ga, tomorqa yerlar 49,9 ming ga, bog‘dorchilik va sabzavotchilik 0,1 ming ga, o‘rmonzorlar 23,4 ga ni tashkil etmoqda. Hozirgi paytda viloyat yer maydonlariga antropogen bosimning yuqoriligi, iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘siri, yer va suv resurslaridan noqilona foydalanish, aholiga tomorqa yerlarini ajratilishi, adir mintaqa hududlarida bog‘dorchilik va uzumchilik tarmoqlariga suv ta‘minotini yetkazishdagi uzilishlar natijasida keyingi o‘tgan yigirma yillikda (2003-2020 yillar) yer fondining tarkibiy tuzilishida o‘ziga xos o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.



2-rasm. Namangan viloyati yer fondi tarkibini o‘zgarish dinamikasi. (2003-2020 yillar kesimida).

Jumladan, viloyatning umumiy yer maydoniga nisbatan 5,1 ming ga ekin yerlar, 0,9 ming ga bo‘z yerlar, 17,1 ming ga pichanzor va yaylovlar, 2,1 ming ga

o'rmonzorlar 0,2 ming ga bog'dorchilik va uzumchilik tarmoq yerlari, 0,4 ming ga boshqa yerlar qisqarib borishi kuzatilgan (2-rasm). Shuningdek, viloyatda adir va adir orti tekisliklarini kuchli sug'orma dehqonlikka tortilishi natijasida Qoradaryo, Norindaryo va Sirdaryoning quyi terrasalarida joylashgan yerlarning yuqori qismida yana bir ekologik muammo, gurunt suvlari sathining hududiy ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bu holat qadimdan sug'orib kelinayotgan maydonlarda ham mavjud. Masalan, yer osti suvlari sathi Mingbuloqda 1,5-2,5, Namangan tumanida - 1,5-2,0, Kosonsoyda - 1,5-2,2 m, Norinda - 1,4-2,3 m, Popda - 1,4-1,5 m, To'raqo'rg'onda - 1,3-1,7 m, Uychida - 1,7-1,9 m, Uchqo'rg'onda - 1,7-2,5 m, Chustda - 1,9-2,15 m, Chortoqda 3,9-4,2 m. oralig'ida o'zgarib turadi. Ayniqsa, so'nggi 15-20 yil davomida sug'orma dehqonchilikni rivojlanishi oqibatida tabiiy sho'rlangan va meliorativ holati og'ir yerlar maydoni ortib bormoqda. Buning oqibatida tuproqning asosiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni uning unumdorligini pasayishi olib kelmoqda. Shuning uchun, tuproq unumdorligini qayta tiklash, tarkibidagi zaharli o'g'itlar ta'sirini yo'qotib borishning qulay yo'llaridan biri organik o'g'itlardan keng ko'lamda foydalanish va almashlab ekishni uzluksiz qo'llashni amalga oshirish lozim.

Namangan viloyatida asosiy suv manbalari daryolar hisoblandi. Norin, Qoradaryo, Sirdaryo, shuningdek 23 ta kanal va soylar, 16 ta yirik suv va sel suvlarini yig'ish omborlari mavjud bo'lib, ularda yiliga o'rtacha 6,7 mlrd m³ suv yig'iladi. Shundan 3,3 mlrd m³ suv qishloq xo'jaligiga, 13,6 mln m³ sanoat sanoat ishlab chiqarishga, 18 mln m³ suv ichimlik ehtiyoji uchun ishlatiladi. Olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, daryolarning viloyatga beradigan suv miqdori yiliga 9 km³ dan 30 km³ gacha ni tashkil etadi. Daryolarning eng kamsuvlik davr 1974 va 1975 yillarda ketma - ket kuzatilib, 9,2 - 9,5 km³ bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, bu yillar Toqtogul suv omborini suvga to'ldirish davriga to'g'ri keladi. Daryolarning ser suvlik davri 1969 yilda kuzatilgan bo'lib, 29,8 km³ ni tashkil etgan. Bunday katta suv 1910 yildan beri bir marotaba kuzatilgan va u 1969 yilning sirkulyatsion xususiyatlari natijasi bo'lib, butun O'rta Osiyo hududida birday kechgan.

Viloyatning suv resurslari 1970 yildan 2017 yilgacha biroz ko'payib bormoqda. Bu ko'payish yiliga o'rtacha 0,09 km³ (90 mln m³) ni tashkil etadi. 1970-2017 yillarni ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1988 yilgacha kamsuvlik, undan keyingi davrlardan to hozirgacha davom etayotgan davr esa sersuvroq davridir.

Viloyatning ekin maydonlariga To'xtagul suv omboridan kelayotgan suv keyingi 10 yil davomida, tobora sovub, o'rtacha harorati oldingi yillarga nisbatan 5-6 daraja past va tiniq holda kelmoqda. Sababi suv omborida to'planib, tindirilgan suvni uning ostidan oqib kelishidir. Natijada, hamma turga mansub bo'lgan ekinlar bu sovuq suvni yetarli miqdorda o'zlashtira olmasligi, ekinlarning, ayniqsa paxtaning me'yorida kech pishishiga, hosildorlik darajasiga va tola sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Shuningdek, Kosonsoy, Yangiqo'rgon, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlaridagi bog'dorchilik, uzumchilik va mevachilikka ixtisoslashgan bir qator xo'jaliklarda ham sovuq holdagi suvning salbiy oqibatlari yaqqol sezilmoqda.

Viloyatda yer osti suvlari ham sug'orma dehqonchilikda muhim o'rin tutadi.

Yer osti suvlari joylashish xususiyatlariga ko'ra, bir necha o'n metrdan (Mingbuloq, Pop tumanlarining Sirdaryo sohil hududlari) 500 metrga qadar (adir, adirorti tekisliklari va tog'oldi hududlari) chuqurlikda joylashgan. Yer osti suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanibgina qolmay, balki qishloq xo'jaligida ham foydalanilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, suv resurslari yildan yilga o'zgaruvchan resurslardir. Masalan, Podshootasoyda 102 mln m³ dan 281 mln m³ gacha, ya'ni qariyb 3 barobarga o'zgarishi mumkin. Yer maydonlarining sug'orishda va suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda bu jihatlariga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchi bob "Namangan viloyati yer va suv resurslaridan foydalanish holati va uni istiqbolli yo'nalishlari" deb nomlanib, Iqlim o'zgarishi sharoitida sug'orma dehqonchilik va uning geoekologik oqibatlari, sug'orma dehqonchilikda suvni tejamkor texnologiyalarini joriy etish, sug'orma dehqonchilikda tomchilatib, yomg'irilatib va plyonka ostidan sug'orish usullaridan foydalanish va ularning samaradorligi, mul'chalash usuli va undan sug'orma dehqonchilikda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Respublikamizning umumiy 44410,3 ming gektar yer maydonidan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlari 25681,3 ming gektarni yoki umumiy yer fondining 57,8% ini tashkil qiladi. Shundan qishloq xo'jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, ya'ni sug'oriladigan maydonlar 4,3 mln gektarni tashkil qilib, ushbu yerlar respublikamizning "oltin fondi" hisoblanadi, Ular ja'mi yer fondining 10 foizga yaqinini tashkil etib, yalpi qishloq xo'jalik maxsulotlarining 95 foizini yetkazib beradi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'orma dehqonchilik Respublikamiz milliy daromadining 20 % ga yaqin qismini hosil qiladi.

Hozirgi vaqtda sug'orishning salbiy oqibatlarining asosiysi uning natijasida yerning sho'rlanishidir. Har yili sho'rlanishga qarshi kurashga juda katta miqdorda mablag' sarflanadi va buning ustiga sho'rni yuvish uchun juda katta xajmda suv ham sarflanadi. Sho'rlashgan yerlar ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish uchun, sho'r yuvishga sarflanadigan suv miqdorining kattaligi sababli, sho'rlashmagan yerlarga nisbatan 1,5-2 marta ko'proq suv sarflashni talab qiladi.

Namanganda 2020 yili sho'rlashgan yerlar 23,4 ming gektarni yoki sug'oriladigan maydonlarning 8,0 % ini tashkil etgan Shundan 5,8 % kam sho'rlangan, 2,1 % i o'rtacha sho'rlangan va 0,1% kuchli sho'rlangan yerlardir.

Namangan viloyatining jami ekin maydoni 189987 gektarni yoki viloyat yer resurslarining 25,5 foizini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda sug'oriladigan maydonlarning qariyb 10 foiziga yaqini meliorativ holati yomon bo'lib, bu asosan yerlarning ikkilamchi sho'rlanishi, yer osti suvlarining yer yuzasiga yaqinlashishi bilan bevosita bog'liq. Bunday yerlar 23,4 ming gektarni tashkil etib, ayniqsa Pop, Mingbuloq, Chust tumanlarida ko'proq maydonni egallagan. Nisbatan yuqoriroqda joylashgan Chortoq, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlari hududidagi tuproqlar meliorativ holatining yomonlashuvi sug'orish natijasida minerallarning yuvilib ketishi, tuproq gumusining kambag'allashuvi bilan bog'liq.

Yer osti suvlari sathi bilan yer yuzasi orasidagi masofa 2,5-3 metr bo'lishi ekologik holatning buzilayotganligini ko'rsatib, uni tartibga solish uchun zudlik bilan choralar ko'rish zarurligi haqida habar beruvchi ko'rsatkichdir. Namangan viloyatida ham 2,5-3 metr oralig'idagi yer osti suvlari bo'lgan yerlari 104,8 ming gektarni tashkil etib, jami sug'oriladigan maydonlarni 37,1% tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich, O'zbekiston bo'yicha sug'oriladigan yerlarning 50 % ini tashkil etadi. Yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga tekislikdagi suv omborlari ham ta'sir etib, ularning to'g'onlaridan o'nlab kilometr yuqorigacha yetib boradi.

Ikkilamchi sho'rlanish paxta hosildorligini kam sho'rlangan yerlarda 20-30 % ga, o'rtacha sho'rlangan maydonlarda 40-60 % ga, kuchli sho'rlangan yerlarda esa – 80 % gacha kamaytirib yubormoqda.

Viloyatda keyingi yillarda suvga bo'lgan ehtiyojni ortib borishi, qurg'oqchilik yerlarni miqdori va xavfini yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda (2-rasm). Xususan, Chust, Pop, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumani adir va adir oldi tekisliklarida suv ta'minotidagi uzilishlar, sug'orish uchun yetkazib beriladigan suv sarfini keskin qisqarishi qishloq xo'jaligini ayrim tarmoqlarini rivojlanishiga keskin ta'sir etmoqda. Ayniqsa, yog'in miqdorini mavsumlar kesimida o'zgarishi hamda evopotranpiratsiya jarayonini yuzaga kelishi qurg'oqchil hududlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat viloyatning Chortoq, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlaridagi qishloq xo'jaligi maydonlarida kuzatish mumkin.

O'zbekistonda sug'orish mumkin bo'lgan 18 mln.ga maydon mavjud bo'lib, hozirgi vaqtda 4,3 million gektaridan sug'orma dehqonchilikda foydalanilgan holda, shunga muvofiq asosiy suv resurslari sug'orishning hozirgi holatida o'zlashtirilgan. Shuning uchun yer resurslari yetarli bo'lishiga qaramasdan sug'oriladigan maydonlarni kengaytirishga imkoniyat deyarli yo'q.

Namangan viloyatida ham bugungi kunga sug'orishda suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan qishloq xo'jaligida tejamkorlik bilan foydalanish masalalriga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirda viloyatning 28 ming gektar maydonida intensiv texnologiyalar asosida sug'orish ishlari yo'lga qo'yilgan. Shundan 23 ming gektar maydonda tomchilatib, 5 ming gektar maydonida yomg'irlatib sug'orish usullari asosida qishloq ho'jlik ekinlari yetishtirishirilmoqda. Bu esa viloyatda sug'oriladigan maydonlarni 10% ni tashkil etadi.

Olib borilgan tadqiqotlarda tomchilatib sug'orishni joriy etishda harajatlarni tezda qoplanishi asoslab berilgan. Tomchilatib sug'orishga o'tish nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlanishga, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida Namangan viloyati tumanlari bo'yicha suv sarflanishining tahlil etilgan bo'lib, unga ko'ra sug'orish uchun suvning eng katta - 11ming m³/ga 40-50% iga paxta va sholi ekilgan maydonlarga to'g'ri keladi. Paxta maydonlari kam, bog' va uzumzorlar katta hududlarni egallagan tumanlarda bir gektarga 3 ming m³ dan atrofida suv sarflanadi (1-jadval). Demak, respublikada sug'orishga

sarflanadigan suvning 40-50% i paxtaga va sholi ekildaigan maydonlarga sarf qilinishi aniqlandi.

Yuqoridagi holatlar suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish zarurligini taqazo etadi. Bizningcha, qishloq xo‘jaligida moy olinadigan va suvni kam talab etadigan ekinlar maydonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa paxta hosildorligi kam va suv taqchil hududlarda bog‘ va uzumzorlarni tashkil etish zarurdir. Chunki mazkur qishloq xo‘jaligi tarmoqlari sug‘orishda katta miqdorda suv talab qilmaydi, paxtaga nisbatan 3-4 marta kamdir.

1-jadval

Namangan viloyati tumanlarida qishloq xo‘jaligi ekinlari maydoni va 1 ga sug‘oriladigan maydonga suv sarfi

Tumanlar	1 ga ekinga suv sarfi, ming m ³	Ekin maydoni, %		
		G‘o‘za	Bog‘ va uzumzorlar	Bug‘doy
Kosonsoy	5,9	41	8,7	41
Mingbuloq	9,3	56	0,7	26
Namangan	8,4	53	6,0	34
Norin	9,4	59	2,3	28
Pop	11,6	53	3,0	32
To‘ra‘o‘rg‘on	8,8	55	9,4	31
Uychi	8,5	44	7,8	29
Uchqo‘rg‘on	8,4	62	1,7	29
Chortoq	7,0	20	16,9	26
Chust	7,1	26	11,9	29
Yangiqo‘rg‘on	3,5	8,5	36,8	40

